
JURNALISTLAR RISHTONDAGI BUNYODKORLIK ISHLARI BILAN TANISHISHDI

Press-tur

Bugun 2022 yil 26 avgust kuni AOKA direktori va viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-grafikka asosan Rishton tumanida navbatdagi press-tur o'tkazildi. Mazkur tadbirda Rishton tumani hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Aziz Mustafoulov, tumanda faoliyat yuritayotgan OAV vakillari, jurnalistlar va blogerlar ishtirok etishdi. Press tur qatnashchilari dastlab Rishton tumani M.Topvoldiev mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi "Rus O'zbekteks" MChJ xorijiy korxonasi qoshida tashkil etilayotgan tuqimachilik fabrikasining qurilish jarayonlari bilan ham tanishishdi. 1100 ishchi o'ringa mo'ljallangan ushbu fabrikada momiq sochiq, choyshab, ip kalava ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Loyiha qimmati 37,5 mln AQSh dollarga teng bo'lgan korxon qurilishi 2021-2022 yillarga mo'ljallangan. Fabrika Xitoy texnologiyalari bilan jihozlanadi. Ayni damda ushbu majmuada so'nggi pardozlash ishlari olib borilmoqda. Shundan keyin press tur ishtirokchilari tumanda tadbirkor Islomjon Orifjonov tomonidan qurilayotgan "Chinor plyus 2020" turistik majmuasi bilan tanishishdi. Rishton tumani Oqer MFY hududida joylashgan ushbu majmuaning loyiha qiymati 37 mlrd. so'mni tashkil etadi. Majmuada mehmonxona, sauna, yozgi va qishki basseyn, oshxona, majlislar zali joylashgan bo'lib, Rishton turistik salohiyatining yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Press tur ishtirokchilari shuningdek, M. Topvoldiev MFY hududida barpo etilayotgan ko'p qavatli uylardan iborat bo'lgan "Nurafshon" mavzesida bo'lishdi. "Nurafshon" mavzesida esa 9 ta ko'p qavatli turar-joy binosi qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning 5 tasi foydalanishga topshirilishga tayyor. 4 ta binoda qurilish ishlari davom etmoqda.

* * *

MATBUOT ANJUMANI O'TKAZILDI

Bugun Rishton tumani hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Aziz Mustafoulov ishtirokida Mahallabay ishlash va tadbirkorlik rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarga bag'ishlagan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Matbuot anjumani ochiq muloqot tarzda tashkil etilib, unda ishtirok etgan jurnalistlar o'zlari qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi.

2022-08-26 11:30:22